

G'ofur Mirabbosovich Abdurashidovning
100-yilligiga bag'ishlanadi.

O'ZBEK DIPLOMATIYASI TARIXIDAN

Dilorom RAHIMBAYEVA,

ISFT instituti katta o'qituvchisi,
diplomatik darajasidagi 3-kotib, PhD

Annotation

the article reveals the activities of the Uzbek diplomat Gafur Abdurashidov (1924-1973). The path of G. Abdurashidov from an ordinary Uzbek student to the highest peak of diplomacy - the rank of Ambassador Extraordinary and Plenipotentiary - Resident Representative of the United Nations. Historical documents and also archival materials from the author's personal archive were used.

Key words

diplomat, United Nations, doyen, Kurd Waldheim, Moscow, MGIMO, Khalid Malik, Egypt, Somalia.

Аннотация

В статье раскрывается деятельность узбекского дипломата Гафура Абдурашидова (1924-1973). На основе исторических документов и архивных материалов из личного архива автора освещён путь Г.Абдурашидова от обычной узбекской студенческой парты до наивысшего пика дипломатии – ранга Чрезвычайного и полномочного посла – резидента-представителя Организации Объединенных Наций.

Ключевые слова

дипломат, Организация Объединенных Наций, дуайен, Курд Вальдхайм, Москва, МГИМО, Халид Малик, Египет, Сомали.

Annotatsiya

maqolada o'zbekistonlik diplomat G'afur Abdurashidovning (1924-1973 yy.) faoliyati haqida so'z boradi. G'.Abdurashidovning oddiy o'zbek talabasi partasidan to diplomatiyaning eng yuksak cho'qqisi – Favqulodda va muxtor elchi – Birlashgan Millatlar Tashkilotining rezident-vakili darajasigacha bosib o'tgan yo'li tarixiy manbalar hamda muallifning shaxsiy arxivi ma'lumotlari orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar

diplomat, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, duayen, Kurd Valdxaym, Moskva, MXADI, Xolid Malik, Misr, Somali.

Davlatchiligimiz tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Davlat bor joyda elchiliklar, qo'shni davlatlar bilan aloqalar, bir so'z bilan aytganda diplomatiya, diplomatik xizmat alohida o'rin tutib, davlat tarkibida muhim ahamiyat kasb etgan.

Minglab kilometrlarga cho'zilgan Buyuk ipak yo'lining davlatimiz sarhadlaridan o'tganligi, Xitoy, Hindiston va Yevropaning qator davlatlari bilan savdo-sotiq aloqalari olib borilgani tarixdan ma'lum [1. 14].

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi muzeyida Yevropa mamlakatlari, Xitoy hamda Hindiston elchilarining qabul marosimlari pannosi, tuzilgan bitimlar, o'zaro yozishmalar, notalar namunalarini ko'rish mumkin.

Buxoro amirligi, Qo'qon va Xorazm xonlarining o'ziga qo'shni bo'lgan hamda boshqa davlatlar bilan elchilar, elchiliklar darajasida aloqalar olib borilgani tarixiy manbalar va hujjatlardan ma'lum [1.132].

Ming yillar davomida o'zining elchilik an'analariga ega bo'lgan davlatimiz, Sobiq ittifoq davrida, boshqa ittifoqdosh respublikalar singari tashqi siyosat va diplomatiya sohasidan chetlatib qo'yildi. Markaz (Moskva) bu siyosatini go'yoki O'rta Osiyo xalqlari asosan qishloq xo'jaligi, chorva boqish, paxta yetishtirish bilan shug'ullanishi lozim deb hisoblar, bu siyosatini shunday xaspo'shlar edi. Vaholanki, sobiq SSSR konstitutsiyasida har bir ittifoqdosh respublika o'z tashqi siyosat idorasi va diplomatlariga ega bo'lishi belgilab qo'yilgan edi («О предоставлении Союзным республикам полномочий в области внешних сношений и преобразования в связи с этим народного комиссариата иностранных дел из общесоюзного в союзно-республиканский народный комиссариат». Закон от 1 февраля 1944 г. Сб.законов СССР и Указов ПВС СССР 1938-1958 гг. М. "Юридическая литература", 1959. С.32-33). Lekin, amalda, tashqi siyosat Moskva orqali olib borilgani tarixdan ma'lum. Ushbu qonun asosida har bir ittifoqdosh respublikalarda tashqi ishlar komissarligi (1946-yildan ministrluk) tuzildi va tashqi siyosat idorasi, tashqi siyosat borasida barmoq bilan sanarli darajadagi o'zbek diplomatlari faoliyat olib bordi (Sobiq SSSRning Favqulodda va Muxtor elchilari: Abdurazzoqov B., Maqsudov L., Muxiddinov N.A., Nishonov R.N., Qo'chqorov A.M., G'.Abdurashidov va boshqalar).

Shunday insonlardan biri – G'afur Mirabbosovich Abrurashidovdir.

G'.Abdurashidov Somalida 1970-1973-yillarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Rivojlanish Dasturi (PROON)ning rezident-vakili (Favqulodda va Muxtor Elchi darajasida) vazifasida ishlagan. Bu dasturga 12 ta asosiy loyiha kirgan va ularga umumiy miqdori 17 million AQSh dollaridan iborat mablag' ajratilgan edi. Shundan, 5 mln Somali davlatining

mineral resurslarini qayta ishlash, yerosti suvlaridan foydalanish, yerlarni sug'orishning yangicha usullarini ishlab chiqishga va jamiyat rivojiga hissa qo'shishga yo'naltirilgan bo'lib, G'afur Abdurashidov o'z zimmasidagi vazifani sidqidildan, halollik bilan bajardi. Bu samarali xizmati uchun Somali hukumatining, xalqining cheksiz hurmatini qozondi. BMTning "Tinchlik uchun kurash" medali bilan taqdirlangan.

Bu inson haqida birinchi bor 1993-yil oxirlarida (1992-2000-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida arxiv fondi boshlig'i lavozimida ishladim) ma'lumotga ega bo'ldim. 1993-1994-yillarda vazirlikdagi islohotlar natijasida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Xodimlar attestatsiyadan o'tkazilib, diplomatik rang (daraja) lar berildi, vazirlik kengaytirildi. Vazir o'rinbosari A.Komilov tomonidan vazirlik arxiviga alohida e'tibor berilib, Tarix-arxiv bo'limiga diplomatlarimiz va o'zbek diplomatiyasi tarixini yaratish vazifasi topshirildi. Arxiv xodimlarini ham attestatsiyadan o'tkazish hamda ularga diplomatik daraja berish taklifi berildi. Shundan boshlab, arxiv bo'limida o'zbek diplomatlarining ro'yxatini shakllantirish hamda ularning faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni yig'ishga kirishildi. Poytaxtda birin-ketin chet davlatlarning elchixona va xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini ochila boshladi. O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-martda BMTga a'zo bo'ldi. 1993-yil 24-oktabrda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochilib, Xolid Malik BMTning vakili etib tayinlandi. BMT protokoliga ko'ra, bu xalqaro tashkilot xodimlarini e'tiborda olib turgan. Xolid Malikning O'zbekiston bilan tanishish jarayonini boshlagan dastlabki kunyoq vazirlikning mas'ul xodimlari bilan Chig'atoy qabristoniga BMTning rezident-vakili G'afur Abdurashidov ruhini xotirlab, qabriga gulchambar qo'ygani haqidagi xabarni eshitdim. Zudlik bilan (internet yo'q), O'zbekiston ensiklopediyasidan ma'lumot izlashga tushdim. Otam Vohid Shukurov davlat organlarida xizmat qilgan (1933-2007-yy. O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetida mas'ul lavozimda faoliyat ko'rsatgan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan quruvchi), ko'plab diplomat do'stlari bor, anchayin ziyoli inson edilar. Ular 1973-yil bahorida Toshkent aeroportiga Afrika davlati Somalidan Moskva orqali temir tobutda G'afur Abdurashidov jasadi keltirilgani, Chig'atoy (Kommunistlar) qabristonidagi dafn marosimida tashkil qilingan katta mitingda o'zlari ham ishtirok etganlari va mitingda respublika hukumati rahbarlari, do'stlari va yaqinlari G'.Abdurashidov faoliyati haqida iliq so'zlarni aytishganini esladilar. Ertasigayoq G'afur Abdurashidovning turmush o'rtog'i Roza Abdurashidova bilan tanishib, maqsadimni aytdim. Opa o'ta vazminlik va ko'zlarida yosh bilan gaplarimni bo'lmay, diqqat bilan tingladi. O'ta samimiy, nihoyatda ziyoli bu ayolning ham o'rganishga arzigulik hayoti, tarixi borligi suhbat davomida meni yanada to'lqinlantirdi va otamning salomini yetkazdim. Uchrashuvimiz G'.Abdurashidovning Darxon dahasi orqasidagi joylashgan xonadonida bo'lib o'tdi (oldingi Uriskiy ko'chasi, hozirda G'. Abdurashidov ko'chasi). G'afur Abdurashidov xonadoni uy-muzeyga aylantirilgan. Uy-muzey devoridagi yozuv: (Надпись на доске:) "Абдурашидов Гафур Мираббасович (6.12.1924-3.03.1973). Первый представитель Советского государства в комитете солидарности стран Азии,

Африки и Латинской Америки (Египет, Каир, 1958-1962). Чрезвычайный и полномочный посол (резидент-представитель в ООН 1970-1973 гг.).

JIDU (Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2000-2013 yy.) dagi faoliyatim davomida 1-kurs talabalari bilan ushbu uy-muzeyga bir necha marta tashriflar tashkil etildi.

G'.Abdurashidov – 1924-yil Toshkentda dehqon oilasida tug'ilgan, uning navqironlik yillari ikkinchi jahon urushi yillariga to'g'ri keladi. (Ushbu ma'lumotlarni yoritishda ustozim, 1945-yilda MGIMOni tugatgan, falsafa fanlari doktori, professor Q.Xonazarovning bergan ma'lumotlari asosida tayyorlangan).

O'z faoliyatini aviatsiya zavodida avval ishchi, keyinchalik brigada boshlig'i vazifalarida boshlagan bu harakatchan o'spirin, 1945-yilda Toshkent davlat universitetining (hozirgi M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti) sharqshunoslik fakultetiga o'qishga kiradi. G'afur o'qishi davomida chet tillarni chuqur o'rganishga kirishdi va bu yo'lda tinmay izlandi. Natijada u arab, ingliz, fransuz, turk, rus tillarini yaxshi o'rgandi. Shu bilan bir vaqtda u boks bilan shug'ullanadi. Musiqaga bo'lgan qiziqishi tufayli fortepyano va skripka chalishni o'rganadi. G'.Abdurashidovning do'stlari, ustoz, taniqli faylasuf olim Q.Xonazarov va diplomatlarning eslashicha, musiqa asboblari jahon va klassik musiqalarni mohirlik bilan ijro etgan.

O'qishni tugatgach, O'zbekiston radiosining xorijiy mamlakatlar bo'limida faoliyatini davom ettiradi. Chet ellar uchun beriladigan ma'lumotlarni radio orqali uzatish davomida G'.Abdurashidov ingliz, fransuz, turk tillarini yanada mustahkamlaydi. AQShlik siyosiy emmigrantlar Kitell oilasi bilan yaqindan muloqoti ingliz tili bo'yicha bilimlarini yanada chuqurlashtirishga imkon beradi. Roza Abdurashidovning eslashicha, BMT Bosh kotibi Kurd Valdxaym ko'pincha "BMT xodimlaridan faqat mister G'afur Abdurashidov haqiqiy inglizlardek ingliz tilida sof va ravon gapiradi", – deb ta'kidlar ekan (Kurt Valdxaym, 1972-1981-yillarda BMTning Bosh Kotibi). Ma'lumki, o'z ishining ustasi tezda nazarga tushadi. G'.Abdurashidov O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'ining o'rinbosari etib tayinlanadi. Shu kezlari 1958-yilda KPSS MK kotibi lavozimida faoliyat yuritayotgan N.Muhiddinov (1917-2008-yillarda taniqli davlat va siyosat arbobi, Favqulodda va muxtor elchi, 1968-1977-yillarda SSSRning Suriyadagi Favqulodda va Muxtor elchisi) G'.Abdurashidovni Osiyo va Afrika mamlakatlari birdamligi qo'mitasiga SSSRning vakili sifatida tavsiya etdi. Komitetning shtab-kvartirasi Misr poytaxti Qohira shahrida (Kair) joylashgan. Bu yerda G'.Abdurashidov samarali ishlarni amalga oshiradi. Ushbu tashkilotning Bosh kotibi misrlik yozuvchi va siyosat arbobi Yuzef Elsibay bilan do'stona munosabatlarni o'rnatadi. "Til bilgan dil biladi" deganlaridek, arab va ingliz tillarini mukammal bilgan G'afur Abdurashidovning xonadonida doimo zamonasining taniqli insonlari, mehmonlar bo'lgan. Ular orasida shoira Zulfiya, tojik shoiri Mirzo Tursunzoda, "Izvestiya" gazetasining bosh muharriri A.Adjubey, "Ogonyok" jurnalining bosh muharriri A.Safronov,

afrikalik taniqli siyosatchi Patris Lumumbalar mehmon bo'lishgan. G'.Abdurashidov bu tashkilotdagi faoliyatini juda qiziqarli, samarali ado etganligini diplomat do'stlari mamnunlik bilan eslaydilar.

1962-yilda tashkilotdagi xizmatini tugatib, vataniga qaytib kelgan G'.Abdurashidov O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetida va davlat reja komitetida ishlaydi. Tez orada BMT tavsiyasiga muvofiq G'.Abdurashidov nomzodi BMTning PROON rezident-vakilligiga SSSRdan vakil qilib tayinlanadi. Ushbu dastur o'zining 89 ta bosh emissariga ega bo'lib, shundan bir o'rin SSSRga ajratiladi. Emissarlikka tavsiya etilgan nomzod 4 yil mobaynida turli yuqori lavozimlardagi shaxslar bilan suhbatdan o'tishi, oliy darajadagi tekshiruv va tayyorgarlik, chig'iriq va sinovlardan o'tishi lozim. Bu BMTning kadrlar tanlash siyosatining naqadar mas'uliyatli ekanligidan dalolat.

1970-yilda G'.Abdurashidov ilm bilan shug'ullanish maqsadida O'zbekiston SSR FA Sharqshunoslik institutiga ilmiy xodim bo'lib ishga o'tadi, shu payt zudlik bilan Moskvaga chaqirtirildi. BMT ning rivojlanish dasturiga SSSRning vakili sifatida Somaliga tayinlanadi. O'z rivojlanish yo'lini tanlagan bu davlatdagi yuqorida tilga olingan vazifalarni sidqidildan bajardi. Faoliyati davomida u Somali Prezidenti Muxammad Sead-Barra bilan do'stona munosabatlarni o'rnatdi. Shu bilan bir vaqtda G'afur Abdurashidov Somalidagi diplomatik korpus a'zolari orasida juda katta hurmatga ega va diplomatik korpus "duayen"i ham edi. (Duayen – frans. Doyen – sardor, boshchi) diplomatik korpus boshlig'i, o'zi ishlayotgan mamlakatdagi hamkasblari orasida diplomatik darajasi katta va avvalroq akkreditatsiya qilingan diplomatik vakil).

G'afur Abdurashidov 1973-yil 3-mart kuni ish joyida yurak xuruji bilan Somali poytaxti Mogadisho shahrida 49 yoshida vafot etadi. Taniqli diplomatlar, davlat va siyosat arboblari, diplomatik korpus vakillari G'.Abdurashidovning do'stlari yozgan ta'zianomalari kitobida AQSh prezidenti Kennedining akasi yozgan ta'zianomani ham o'qish mumkin.

2000-yil boshlarida JIDU talabalari bilan diplomat qabrini ziyorat qildik, BMT nomidan qora marmarga G'.Abdurashidovning rasmi, tug'ilgan va o'tgan sanasi hamda UN deb yozilgan. Keyin uy-muzeyga tashrif buyurdik. Roza Abdurashidova talabalar savollariga javob berdi.

Tariximizning kam o'rganilgan, hali ochilmagan varaqlarini o'rganib, tahlil qilib, o'zbek xalqining har tomonlama yetuk komil farzandlari, dunyoga tanilgan qahramonlarini topib, ularning ibratli hayoti va faoliyatlari bilan tanishtirish tarix fani oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi [2].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xalqimizning diplomatiya sohasidagi an'analari, diplomatlari maktabi, mustaqil O'zbekiston Respublikasida ro'y berayotgan ijtimoiy, siyosiy islohotlar, tashqi aloqalarning ko'p tomonlama hamda ikki tomonlama rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek diplomatiyasi tarixidan.T.: JIDU, 2003.
2. Д.Рахимбаева, И.Шарапов. Первый эмиссар // "Народное слово" от 11 декабря 1996 года.